

1.2.4.1.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning tizim tashkilotlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati bo'limi tomonidan 2025 yil davomida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida
MA'LUMOT

I. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amaldagi qonunchilikdagi topshiriqlarni bajarilganligi to'g'risida umumiy axborot

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qarori ijrosi ta'minlash maqsadida qaror ilovasi bilan tasdiqlangan **29 ta** indikator bo'yicha Agentlik markaziy apparatda hamda uning tizim tashkilotlari kesimida indikatorlari ijrosi ta'minlanib, hujjatlashtirish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning korrupsiyani oldini olish bo'yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustivor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan topshiriqlar yuzasidan Agentlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi bilan birgalikda "Texnik jihatdan tartibga solish sohasida korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf qilish hamda korrupsiyadan holi muhitni yaratish borasida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha" yo'l xaritasi ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustivor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-71-son farmoni va "Davlat organlari va tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-147-son qarori talablari ijrosi bo'yicha qator dastur va rejalar ishlab chiqilib, ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasi, Bosh prokuratura, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Hisob palatasi, Adliya vazirligi va boshqa idoralarga yozma ravishda axborot berib borilmoqda.

Agentlik va tizim tashkilotlarda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi "Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 114-son qarorga muvofiq 2025-yil uchun tasdiqlangan "Yo'l harita" ijrosi hamda 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan "Yo'l harita" ijrosini ta'minlash (11.12.25y 03-06-5476-sonli ko'rsatma) uchun yuborildi.

Agentlik va tizim tashkilotlarda "2025-2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2025-yil 16-iyuldagi 446-sonli qaror bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi" ijrosini ta'minlash bo'yicha (12.12.25y 03-06-5476-sonli ko'rsatma) topshiriq yuborildi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 1-dekabrda 03/23-16-26506-son xatida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori bilan tasdiqlangan "Vazirlik va idoralarning iki audit xizmati to'g'risida"gi nizomga asosan agentlik ichki audit xizmatining 2025-yilning faoliyat natijalari yuzasidan (19.12.25y 03-06-5592-son) ma'lumotnoma Iqtisodiyot

va moliya vazirligiga taqdim etildi

II. Siyosat va tartib-taomillar

Agentlik va uning tizim tashkilotlari kesimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga taalluqli bo'lgan **15 ta** (2025-yil 4-fevraldagi 10-son buyruq) ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi:

2025-yil 2-iyun kuni "O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining tizim tashkilotlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati tuzilmalari shtat birliklariga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi **64-son** buyrug'i ishlab chiqilib, "O'zTest" va "O'z.MMI" davlat muassasalariga qo'shimcha shtat ajratish bo'yicha topshiriq kiritildi. Bu borada "O'zbekiston ilmiy-sinov va nazorati markazi" va "O'zbekiston milliy metrologiya instituti" davlat muassasalariga qo'shimcha 2 tadan shtat birliklari ajratildi.

III. Xavf-xatarlarni baholash

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-martdagi 114-son qarori ijrosi yuzasidan 2025-yil 2-mayda Agentlik tomonidan xavf-xatarlarni bartaraf qilish dasturi ishlab chiqilib, yuklangan vazifalarni bajarish uchun amalga oshiradigan **9 ta** funksiyalar korrupsiyaviy xavf-xatarlari tahlil qilindi. Shundan, 1-tasi yuqori, 7-tasi o'rta va 1-tasi past bo'lgan funksiyalardan iborat bo'lgan xavf-xatarlarni baholash dasturi ishlab chiqildi. Xozirda ushbu dastur talablari asosida monitoring qilinib, maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar

Xususan, o'tgan davrda Agentlik tomonidan **7 ta** (O'zMMI DM 3 ta, O'zTest DM 2 ta, Standartlar instituti va Inspeksiyada 1 tadan) korrupsion xatti-harakatlar va qonun buzilishi holatlari sodir etilishi bo'yicha xizmat tekshiruvlari o'tkazildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 3-fevradagi 18/2553E-25-son taqdimnomasi bo'yicha (13.03.25y 02-06-586-son), Toshkent viloyati prokuraturasining 2025-yil 7-martdagi 15/1-67-son taqdimnomasiga bo'yicha (joriy yilning 18-mart kuni 02-06-1027-son), Toshkent shahar Olmazor tumani prokuraturasining 2025-yilning 23-apreldagi taqdimnomasiga asosan, (29.04.25-yil 02-06-1659-son) O'zbekiston Respublikasi DXXga (21.04.25-yil 01-06-1490-son, 13.08.25-yil 02-06-3123-son) va Samarqand viloyati prokuraturasiga (16.09.25-yil 03-06-3557-son) huquqiy baho berish uchun yuborildi.

O'zbekiston Respublikasi Adminstrasiyasi va Bosh prokuratura ishtirokida 2025-yil 1-noyabr kuni o'tkazilgan kengaytirilgan majlisda "**Maishiy korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish chora-tadbirlari**" bo'yicha o'tkazilgan majlisi hamda Agentlikning 2025-yil 3-noyabrdagi 46-sonli yig'ilish bayoni ijrosini ta'minlash borasida qator ishlar amalga oshirildi:

Jumladan, Agentlik va tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati xodimlarini ish samaradorligiga qarab baholash mezonini shlab chiqilib, (19.11.25y 03-06-5093-son ko'rsatma) ijro uchun joylarga yuborildi.

Agentlik va tizim tashkilotlarda "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasiga asosan, tashkilotning so'nggi bir yilda mol-mulkini sotib olishda yoki ijaraga olishda ishtirok etgan xodimlarni ro'yxati shakillantirilib,

(26.11.25y 03-06-5217-sonli ko'rsatma) Agentlik veb.saytiga kiritildi.

Agentlik va tizim tashkilotlarda xorijga xizmat safari davomida olingan yoki o'tkazilgan tadbirlarda berilgan sovg'a-salomlar reestirini yuritish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar tayyorlanib, (02.12.25y. 04-06-5319-sonli ko'rsatma) veb. saytga kiritildi.

Agentlik va tizim tashkilotlar xodimlarining manfaatlar to'g'risidagi deklaratsiyalari qayta o'rganilib, tahliliy baholandi va natijalari yuzasidan rahbariyatga (4.11.25y 03-06-4286-sonli ko'rsatma) axborot berildi.

Agentlik va tizim tashkilotlarda ikki yil ichida bo'shatilgan va oxiri ish joyida o'zi bevosita yoki bilvosita nazoratini amalga oshirgan tashkilotlar yoki ularning tarkibiy bo'linmalarida ishga qabul qilinganlar ro'yhati shakllantirilib, (06.11.25y 03-06-4347-sonli ko'rsatma) Agentlik veb saytiga kiritildi.

Agentlik va tizim tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar ro'yxati hamda ularni kamaytirish bo'yicha rejalar tasdiqlanib, (07.11.25y 03-06-4363-sonli ko'rsatma) Agentlik veb.saytiga kiritildi.

Agentlik va uning tizim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatuvchi xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasi to'ldirildi.

Monitoring natijalariga ko'ra agentlik va uning tizim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatuvchi **49 nafar** xodimda manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan. Shundan barchasi tartibga solindi, 27 ta ehtimoliy va 22 tasi real holatda. Ushbu real va ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha odob-ahloq komissiyalari huzurida ko'rib chiqilib, tegishli choralar ko'rildi.

Shuningdek, hisobot davrida jami **4005 ta** (shundan Agentlik 95 ta, "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DM 239 ta, "O'zMMI" DM 1426 ta, "O'zTest" DM 1791 ta, Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi 89 ta va "Standartlar instituti" 365 ta) shartnomalar bo'yicha xaridlar elektron do'kon, tender orqali hamda yagona yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar doimiy ravishda tekshirib borilmoqda.

Agentlik va uning tizim tashkilotlariga **135 nafar** (shundan, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligida 8 nafar, "O'zbekiston milliy metrologiya instituti" DMda 13 nafar, O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DMda 52 nafar, "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DMda 5 nafar, Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasida 17 nafar va "Standartlar instituti" DMda 40 nafar) nomzodlar o'rganilib, ishga qabul qilindi.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Agentlik va uning tizim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatuvchi **1000 nafardan** ortiq xodimlarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha **6 marotaba** onlayn va offlayn seminar treninglar o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-228-son qarori 9.1-bandi va ilovaning 14-bandlari ijrosini ta'minlash borasida Agentlik va tizim tashkilotlarining boshqaruv, so'nggi uch oyda ishga qabul qilingan, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari va korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan lavozimlarida faoliyat ko'rsatuvchi jami **385 nafar** xodimlar O'zbekiston

Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasida o'qitilib, sertifikatlar olindi (*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Bosh prokuratura va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga 02.12.25-yil 04-06-5306-son xat*).

Bundan tashqari, Agentlik va tizim tashkilotlarda faoliyat ko'rsatayotgan, va yangidan lavozimga tayinlanganlarni qo'shimcha ravishda o'qitish maqsadida o'quv dasturi tasdiqlangan bo'lib, reja asosida o'qitish ishlari amalga oshirilmoqda.

Agentlik va uning tizim tashkilotlari xodimlarining huquqiy ong va madaniyatini yuksaltirish borasida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish yo'nalishida bukletlar, huquqiy targ'ibot materiallari tayyorlanib, rasmiy ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali xodimlar va mutaxassislar uchun joylashtirib borilmoqda.

Jumladan, joriy yilning 25-mart va 5-iyul kunlari Agentlik rahbari Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish borasidagi murojaati O'zbekiston Respublikasi Hukumati portali yagona platformasi va rasmiy veb.saytga joylashtirildi.

Agentlik va uning tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida **63 marotaba** (*shundan, 53 marotaba ijtimoiy tarmoqlarda va 10 marotaba radio-televideniyalarda*) targ'ibot-tashviqot tadbirlari tashkil etilib, **144 marotaba** (*shundan, 45 marotaba ma'ruzalar, 19 marotaba davra suhbatlari, 26 marotaba seminar va 3 marotaba konferensiya*) og'zki hududiy targ'ibotlar tashkil etildi. Ushbu tadbirlarda jami bo'lib **2699 nafar** tizim tashkilot xodimlari qatnashdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-mart kunidagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning korrupsiyani oldini olish bo'yicha ishlar samaradorligi va kelgusidagi ustivor vazifalar"ga bag'ishlangan yig'ilishi va Agentlikning 2025-yil 28-fevral kunidagi 9-son yig'ilish bayoni talablaridan kelib chiqib, joriy yilning 5-14 mart kunlari hududiy huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari bilan hamkorlikda Qoraqolpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlarning mazmun-mohiyati barcha tarkib xodimlariga yetkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezident Adminstratsiyasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-2486-sonli topshirig'iga asosan Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, ularning natijalari OAV, rasmiy sahifalar hamda ijtimoiy tarmoqlarda yuborish bo'yicha media-rejasi ishlab chiqilib, kelishi uchun Ommaviy axborot vositalari uchun kontent yaratish markaziga taqdim etildi (*14.11.25y 04-02-5002-sonli*) xat chiqarildi.

Agentlikning 2025-yil 21-noyabrdagi 118-sonli buyrug'i asosida Agentlikning tizim tashkilotlari filiallarida Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish borasida ishchi guruh rahbari Matbuot xizmati boshlig'i A.Rasulov rahbarligida joylarda targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilib, natijalari hududiy televideniya va veb.saytlarga kiritildi.

Jumladan, 2025-yil noyabr-dekabr oylarida Standartlar instituti DM O'zbekiston 24-kanali, Agentlik (veb.saytga targ'ibot, Huquq va qonun gazetasiga maqola), Akkreditatsiya markazi, MMI (O'zbekiston 24-kanali, veb sayt) va UzTest DMLarida targ'ibot ishlari amalga oshirildi (veb. sayt va UzTest DM rasmiy kanalida tanlov natijalari e'lon qilindi).

"9-dekabr korrupsiyaga qarshi kurashish kuni"munosabati bilan 2025-yilning 25-noyabr kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas'ul xodimi Sh.G'afurov ishtirokida seminar-yig'ilish o'tkazildi.

2025-yilning 25-noyabr va 5-dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining "Antikor.uz" veb saytiga Agentlik tomonidan 2025-yilda amaga amalga oshirilgan ishlar yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son Farmoni 2-ilovasi dasturining 18.2-bandi ijrosi bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi organlariga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarni baholash mezonini bo'yicha (05.12.25y 134-sonli) buyrug'i ishlab chiqildi, (10.12.25y 04-16-3784-sonli topshiriq xati) Vazirlar Mahkamasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborildi (15.12.25y 03-06-5497-sonli xat).

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar

O'zbekistan texnik jihatdan tartibga solish agentligiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar kelib tushmagan.

Agentlik va tizim tashkilotlarda ishonch telefonlari, rasmiy saytdagi sahifa, elektron pochta manzili, telefon bot va feysbook sahifalari tashkil etilgan bo'lib, ular orqali kelib tushgan xabarlar o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilmoqda.

2025-yilning Agentlik va tizim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi hodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish borasida bilim va ko'nikmalarini, tashkilotda qabul qilingan hujjatlar borasidagi xabardorligini o'rganish maqsadida hodimlar o'rtasida anonim so'rovmalar o'tkazildi.

VII. Monitoring va nazorat.

Agentlikning korrupsiyaga qarshi ichki huquqiy-normativ hujjatlari va tartib-taomillariga rioya qilinishi, ularni agentlik faoliyatini korrupsiyaga qarshi qabul qilingan talablarga muvofiqligini tekshirish, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korrupsiyaviy xavf-xatarlarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tahliliy baholash maqsadida tadbirlar o'tkazib borilmoqda.

Jumladan, 2025-yil davomida Agentlikning korrupsiyaga qarshi tartib-tamoyillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha 7 ta ijro bandidan iborat bo'lgan **monitoring jurnali** ishlab chiqilgan bo'lib, shu asosida agentlik va tizim tashkilotlarning muvofiqlikni tahliliy baholash bo'yicha **35 marotaba** joylarga chiqib o'rganildi.

Shu bilan birga, Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasining hududiy bo'linmalariga **12 dona** "e-ma'muriy ish" axborot tizimidan foydalanish uchun maxsus planshetlar bilan ta'minlandi.

Agentlik va uning tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini monitoringini o'tkazishda bir qancha tadbirlar o'tkazildi. Bulardan, Agentlik va uning tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining aktualligi, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning yetarliligi va ularning samaradorligi, korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati bo'limlari faoliyatining samaradorligi, OAVlarda foydalanuvchilar tomonidan qoldirilayotgan izohlar, xodimlarni korrupsiyaga qarshi asosiy tartib taomillardan xabardorligi yuzasidan va yana bir qancha tadbirlar o'tkazilib faoliyat yuzasidan tavsiyalar va aniq chora-tadbirlar belgilab berildi.


VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

2025-yil davomida Agentlik va tizim tashkilotlarda xodimlar tomonidan korrupsion holatlar, ichki mehnat intizomini buzilishi va boshqa holatlar bo'yicha **2 nafar** xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan, **3 nafariga** xayfsan berilgan va **1 nafar** xodim jinoiy javobgarlikka tortilgan.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025 yil 19-maydagi 103-sonli va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 20-sonli Qo'shma Farmoyishiga asosan, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tizimi o'rganilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan dasturlar ishlab chiqilib, (07.07.25-yil 02-06-2619-son ilova xati bilan Xisob palatasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborildi) taqdim etildi. Shuningdek amalga oshirilgan ishlar yuzasidan (06.08.25-yil 02-06-3020-son) ma'lumotnoma O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborildi.

Ushbu yo'nalish bo'yicha chora-tadbirlar davom ettirilmoqda.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
va komplaens nazorati
bo'limi boshlig'i**



Q.Raximov